ma’shuq-ag‘yor uchligi, gul, bulbul, gulshan, boda, may, qadah, ulfat, zohid kabi timsollar yetakchilik qilgan. Taxmislar asosi uchun tanlangan g‘azallar tasodifiy bo‘lmay, bunda shoirlarning ruhiy-ma’naviy yaqinligi, ijod dardi, qalb tug‘yonlari, ichki kechinmalari, dunyoqarashi, saviyasi, poetik shakl, mazmun, maqsad va mahorat mushtarakligi yuzaga chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Boltayeva G. O‘zbek she’riyatida muxamas janri: genezisi, badiiy takomili. Fil.fan.dokt. (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati, Toshkent, 2024, 26-bet.

(2). Ҳабибий. Девон. Тошкент, Ғафур Ғулом, 1980, 362-bet.

(3). Ҳабибий. Девон. Тошкент, Ғафур Ғулом, 1980, 357-bet.

(4). Majidiy R. Ogahiy lirikasi. Toshkent, “Fan”, 1963, 89-bet.

Abdullayeva Umida Abdumutal qizi (O‘zbekiston Milliy universiteti doktoranti; umidaabdullayeva0306@icloud.com)

JAHON ADABIYOTIDA AYOL OBRAZLARI: TARIXIY DAVRLAR VA TADRIJIY TAHLIL

Annotatsiya. *Maqolada jahon adabiyotida yoritilgan ayol obrazlarining badiiy adabiy tahlili hamda tarixan shakllanish bosqichlari aks ettirilgan. Shuningdek, jahon adabiyotining har bir rivojlanish bosqichlariga oid badiiy asarlarda ayol obrazlari, ularning ifodalanishi, feminizm masalalari kabilar ham qamrab olingan. Jahon adabiyotidagi asarlarni tahlil qilar ekanmiz, ulardagi ayol obrazlarining yoritilishi, asarlardagi ayollarga bo‘lgan munosabat, o‘ziga xos jihatlari aks ettiriladi. Shuni ta’kidlash kerakki, jahon adabiyotida ayol obrazi ifodasi davrlar davomida o‘zgarib borgan. Asarlar tahlilida, asosan, ayollarning jamiyatda tutgan o‘rni, oilaviy munosabatlar, jamiyatda ayollarning tan olinish masalalari ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.*

Kalit so‘zlar: *jahon adabiyoti, adabiyotni davrlashtirish, ayol va jamiyat, ayol obrazi, jahon adabiyoti rivojlanish bosqichlari.*

Абдуллаева Умида Абдумутал кизи (докторант Национального университета Узбекистана; umidaabdullayeva0306@icloud.com)

ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИСТОРИЧЕСКИЕ ЭПОХИ И ПОЭТАПНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. *В статье представлен художественно-литературный анализ женских образов, освещенных в мировой литературе, а также этапы их исторического становления. Также в художественных произведениях, относящихся к каждому этапу развития мировой литературы, затрагиваются такие вопросы, как женские образы, их выражение, вопросы феминизма. При анализе произведений мировой литературы отражается освещение в них женских образов, отношение к женщинам в произведениях, их специфика. Следует отметить, что выражение женского образа в мировой литературе менялось с течением времени. В анализе работ в основном также отчетливо прослеживаются вопросы о роли женщин в обществе, семейных отношениях, признании женщин в обществе.*

Ключевые слова: *мировая литература, периодизация литературы, женщина и общество, женский образ, этапы развития мировой литературы.*

Abdullayeva Umida Abdumutal kizi (Doctoral student at the National University of Uzbekistan; umidaabdullayeva0306@icloud.com)

FEMALE IMAGES IN WORLD LITERATURE: HISTORICAL EPOCHS AND PROGRESSIVE ANALYSIS

Annotation. *The article presents an artistic and literary analysis of female images highlighted in world literature, as well as the stages of their historical formation. The works of fiction related to each stage of the development of world literature also address issues such as female images, their expression, and issues of feminism. When analyzing the works of world literature, the illumination of female images in them, the attitude towards women in the works, and their specifics are reflected. It should be noted that the expression of the female image in world literature has changed over time. In the analysis of the works, questions about the role of women in society, family relations, and the recognition of women in society are also clearly traced.*

Keywords: *World literature, periodization of literature, woman and society, female image, stages of development of world literature.*

Kirish. Ayol obrazi, o‘zbek va jahon adabiyotida ko‘p bora yoritilgan holda, adabiyot tarixida hamisha murakkab, rang-barang va ijtimoiy hamda madaniy kontekstlarga mos holda tasvirlanib, insoniyat tafakkurining muhim jihatlarini aks ettirgan. Ayol obrazlari faqatgina erkaklar bilan bog‘liq munosabatlarni aks ettirgan emas, balki ijtimoiy, ma’naviy va psixologik jihatlardan ham chuqur tahlil qilingan.

Asrlar davomida ayol obrazi turli yozuvchi va ijodkorlar tomonidan xilma-xil nuqtayi nazarlardan tasvirlanib, uning ifodasi o‘sha davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlaridan kelib chiqib, muntazam ravishda o‘zgarib borgan. Ushbu maqolada jahon adabiyotida ayol obrazlarining yoritilishi, jahon adabiyotining tadrijiy rivojlanishiga ko‘ra tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon adabiyotida ayol obrazlarining yoritilishi mavzusini tadrijiy jihatdan tahlil qilish sohasida tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlar qatorida, ayniqsa, rus adabiyotshunos olimlari, jumladan, Averintsev S.S., Andreyev M.L., Gasparov M.L., Grinzer P.A., Mixaylov A.V. kabi adabiyotshunoslarni ta’kidlash joiz. Ular o‘zlarining “Категории поэтики в смене литературных эпох” asarida jahon adabiyotini davrlashtirish masalasiga chuqur kirishib, har bir davrning o‘ziga xos xususiyatlarini tanqidiy-badiiy jihatdan yoritib berishgan. Bundan tashqari, Hebron, David Williams, Carmen Cassaligni, Jane Brown, Susanna Fullerton kabi jahon olimlarining ushbu sohaga oid izlanishlaridan ham foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanilgan: qiyosiy tahlil, tahlil va sintez, nazariyalarni solishtirish, tarixiy yondashuv, mantiqiy yondashuv, ketma-ketlik va tizimli yondashuv.

Tahlil va natijaralar. Avvalo, jahon adabiyotining dunyo adabiyotshunos olimlarining xulosasiga ko‘ra davralshtirilishiga to‘xtalib o‘tsak:[1] 1. Qadimgi davr adabiyoti. 2. O‘rta asrlar adabiyoti. 3. Renessans davri adabiyoti. 4. Klassik davrlar adabiyoti. 5. Romantizm adabiyoti. 6. Realizm adabiyoti. 7. Feministik adabiyot. 8. Zamonaviy adabiyot.

Qadimgi dunyo adabiyoti haqida so‘z yuritar ekanmiz, ushbu davrning eng yuksak adabiy yutuqlari asosan qadimgi Yunon va qadimgi Rim adabiyoti bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlash lozim[2]. Qadimgi dunyo ijodkorlari o‘zlari yaratgan asarlarda ayollarga, afsuski, ko‘pincha, tanqidiy munosabatda bo‘lib, ularni deyarli har bir asarda yetilmagan va to‘liq rivojlanmagan obraz sifatida tasvirlaganliklari kuzatiladi. Bu jarayonda Persefona va Afrodita kabi yunon mifologiyasining timsollari ayollar obrazining ushbu talqiniga yorqin misol bo‘lib xizmat qiladi. Ayollarni ijobiy sifatlar bilan sharaflab yozilgan qadimgi dunyo adabiyotiga oid asarlar, asosan, Gomerning qalamiga mansub bo‘lib, uning “Illiada” va “Odisseya” asarlari nihoyatda mashhurdir.

O‘rta asrlar adabiyoti nuqtayi nazaridan, ushbu davr asarlarida dinning va axloqiy qadriyatlarning chuqur ta’siri aniq sezilib turadi. O‘rta asrlarda ayol obrazlari ko‘pincha diniy va axloqiy idealga mos ravishda, muayyan ma’nolarni anglatuvchi timsollar sifatida tasvirlangan. Ushbu davrda ayollar, asosan, Xudoning inoyati va rahm-shafqatining ifodasi sifatida yoritilib, shuningdek, yaxshilik, poklik va ma’naviy mukammallikning timsollariga aylantirilgan. Volfram fon Eshenbax qalamiga mansub “Partsifal” asarida ayollar asarning asosiy qahramonlarini ruhiy qo‘llab-quvvatlovchi, ma’naviy to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi figuralar sifatida ko‘rsatiladi.[3]

Renessans davri (taxminan, XIV–XVII asrlar) Yevropaning madaniy, intellektual va san’at olamida katta o‘zgarishlar ro‘y bergan davr bo‘lib, adabiyot sohasida ham muhim yangiliklar sodir bo‘ldi.[4] Bu davr, ayniqsa, qadimgi yunon va rim madaniyatlariga qayta qiziqish, gumanizm va individualizm kabi tushunchalar bilan bog‘liq bo‘lib, adabiyotdagi ayollar obrazlarining transformatsiyasiga olib keldi. O‘sha davr jamiyatida ayollar hali ham an’anaviy rollarga, xususan, turmush, onalik va uy-ro‘zg‘or faoliyatiga bog‘langan bo‘lsa-da, Renessans adabiyotida ayollar ko‘proq murakkab, mustaqil va ko‘p qirrali obrazlar sifatida tasvirlangan.

Klassik davr (XVII–XVIII asrlar) adabiyotida, ayniqsa, Fransuz va Ingliz ijodkorlarining asarlari o‘ziga xos va diqqatga sazovor ahamiyatga ega bo‘lib, ushbu davrda ayol obrazlari, ko‘pincha, romantik, diniy-axloqiy idealarga mos ravishda ideallashtirilgan holda tasvirlanadi. Ayollar, asosan, ma’naviyat, sevgi

---

[1] Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994, с. 33.

[2] Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994, с. 33.

[3] Стадников Г.В. Зарубежная литература и культура Средних веков, Возрождения и XVII века. N.p.: ООО ДиректМедиа, 2020, с. 55.

[4] Hebron, Malcolm. Key Concepts in Renaissance Literature. Great Britain. Bloomsbury Publishing, 2008, p. 1570.

va sadoqat kabi oliy axloqiy qadriyatlar bilan bog‘lanib, ularning timsollari adabiyotda yuqori ma’naviy fazilatlar, idealizm va mukammallik ramzi sifatida ifodalanadi. Shunday qilib, klassik davr adabiyotidagi ayol obrazlari, faqatgina ijtimoiy va axloqiy normativlarga qarshi chiqishning timsoli sifatida emas, balki shaxsiy mustaqillik, ichki kuch va ma’naviy mukammallikni izlashdagi murakkab va ko‘p qirrali tasvirlarni yaratishda katta rol o‘ynagan.

Romantizm davri adabiyotida ayol obrazlari an’anaviy tasvirlar kontekstidan chiqib, o‘ziga xos va innovatsion shakllarda namoyon bo‘lib, ularning tasviri, ko‘pincha, murakkab, ko‘p qirrali va psixologik jihatdan chuqur bo‘lgan obrazlarga aylangan.[1] Ushbu davrda ayollar, faqat ijtimoiy roli yoki stereotypik obrazlar orqali emas, balki ichki dunyo, hissiyotlar va erkinlik izlashning timsoli sifatida, adabiy asarlarda ya-ngi va mukammal ravishda aks ettirilgan. Gyotening “Faust” asarida ayol obrazlari, ayniqsa, Margarita, ro-mantik idealizm va tragizmning murakkab sintezini taqdim etadi.[2] Margarita, go‘zallik, tozalik va mehr-oqibat kabi idealistik fazilatlar bilan tasvirlanishi bilan birga, uning baxti va muhabbati, shuningdek, jamiyatdagi o‘rni tragik tarzda izdan chiqadi. Uning hissiyoti va ichki dunyosi, faqat uning shaxsiy qarashlari va ehtiroslari bilan emas, balki uning dunyoqarashi va ijtimoiy o‘rni bilan bog‘liq murakkab ziddiyatlarni aks ettirgan holda, asarda o‘zining tragik taqdirini shakllantiradi.

Realizm davri adabiyoti san'at va adabiyotda yangi estetik yondashuvni va tasavvurlarni ifodalashda markaziy o‘rin egallaydi. Ushbu davrda adabiyotda tasvirlangan voqealar, xarakterlar va holatlar, o‘zining tabiiyligi va hayotiyligi bilan jamiyatning haqiqiy ijtimoiy sharoitlariga yanada yaqinlashadi. Realizm adabiyotida insoniyatning turli ijtimoiy qatlamlaridan olingan obrazlar, ijtimoiy haqiqat va individning kundalik hayoti, uning ichki kechinmalari, ruhiy va jismoniy holatlari chuqur va ko‘p qirrali tarzda tasvirlanadi.[3] Realizm davri adabiyotida ayollar o‘z taqdirlarini, sevgi va baxtlarini o‘zlari boshqarishga intiladilar, lekin jamiyatning talablariga qarshi kurashishlari, ko‘plab cheklovlar va kutilgan rollarni bajarmasliklari ularning fojiali taqdiriga olib keladi.

Feministik adabiyot. Ayolning ijtimoiy, siyosiy va madaniy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan va jamiyatdagi ayolning o‘rni, qadr-qimmati hamda erkinligini kengaytirishga intiluvchi adabiy harakat sifatida shakllanadi. Ushbu adabiy yo‘nalishda ayol obrazlari, ko‘pincha, jamiyat tomonidan belgilangan, patriarxal tuzum va an'anaviy jinsiy rollarga qarshi kurashayotgan, o‘z huquqlari va erkinliklarini izlashga intilayotgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Gilmanning “The Yellow Wallpaper” asarida Jorjina ismli ayol, jamiyat va oilaning belgilangan talablari va ijtimoiy me’yorlariga qarshi kurashish jarayonida ichki ziddiyatlarga duch keladi. Uning o‘zligini tanib olish va ichki ozodlikka erishish istagi, asarda ma’naviy izlanish sifatida namoyon bo‘ladi. Jorjina obrazida, patriarxal jamiyatning ayolni cheklovchi va ezuvchi ijtimoiy strukturalari bilan to‘qnashuv, uning psixologik holatini chuqur aks ettiradi. Feministik adabiyotda ayolning shaxsiy va ijtimoiy hayoti, uning jamiyatdagi pozitsiyasi, o‘zligini izlash va o‘z qadriyatlarini tan olish jarayoni, nafaqat individual, balki kollektiv ijtimoiy o‘zgarishlarni talab qiluvchi murakkab jarayon sifatida tasvirlanadi.

Zamonaviy adabiyotda ayol obrazlari, ko‘pincha, murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, ular gender, o‘zlik va shaxsiy erkinlik kabi o‘zgaruvchan ijtimoiy qarashlarning aks sadosi sifatida namoyon bo‘ladi. Zedi Smitning “On Beauty” asarida Kiki Belsi o‘zining onalik, rafiqalik roli va shaxsiyatini bir vaqtning o‘zida muvozanatlashga harakat qilayotgan murakkab ayol obrazida aks etadi. Kiki, zamonaviy jamiyatda go‘zallik va muvaffaqiyat haqidagi an’anaviy tasavvurlarga qarshi kurashadi, bu orqali ayolning ijtimoiy pozitsiyasini va o‘zligini anglash yo‘lidagi ichki kurashni tasvirlaydi. Kiki Belsi, shu bilan birga, o‘zining jamiyatdagi o‘rni va gender roli bilan bog‘liq an’anaviy cheklovlarga qarshi kurashar ekan, zamonaviy adabiyotda ayol obrazining kuchli, mustaqil va faqat shaxsiy izlanishlar orqali o‘zligini anglashga intilayotgan timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jahon adabiyotidagi ayol obrazlarining aks etishi tarixiy, madaniy va ijtimoiy kontekstlarga bog‘liq holda doimiy o‘zgarib boradi, shu bilan birga, ular taraqqiyot, gender tengligi va o‘zlikni anglash kabi markaziy masalalarni doimiy ravishda aks ettirib kelgan. Ayol obrazlarining tahlili turli adabiy janrlar va uslublar orqali ifodalanadi va bu tasvirlar, ko‘pincha, jamiyatda mavjud bo‘lgan patriarxal stereotiplarga, ijtimoiy kutishlarga va gender me’yorlariga qarshi turishning adabiy shakllari sifatida qaraladi. Ayol obrazlarining rivojlanishiga oid adabiy tavsiflar orqali ayollarning jamiyatdagi o‘rni, huquq-

---

[1] Casaliggi, Carmen., Fermanis, Porscha. Romanticism. A Literary and Cultural History. Great Britain, Taylor & Francis, 2016.

[2] Brown Jane K. Goethe’s Faust. The German Tragedy. The United States of America, Cornell University Press, 1986.

[3] Villanueva, Dario. Theories of literary realism. Albania. State University of New York Press, 1997.

lari va tenglik masalalari qanday koʻtarilganini, ularning ijtimoiy pozitsiyalarini oʻzgartirishga intilishlari va oʻzlikni anglash jarayonlarining tahlili amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

[1]. Аверинцев С.С., Андреев М.Л., Гаспаров М.Л., Гринцер П.А., Михайлов А.В. Категории поэтики в смене литературных эпох. М., 1994, с. 33.

[2]. Стадников Г.В. Зарубежная литература и культура Средних веков, Возрождения и XVII века. Np, ООО ДиректМедиа, 2020, с. 55.

[3]. Hebron, Malcolm. Key Concepts in Renaissance Literature. Great Britain: Bloomsbury Publishing, 2008, p. 1570.

[4]. Casaliggi, Carmen., Fermanis, Porscha. Romanticism. A Literary and Cultural History. Great Britain, Taylor & Francis, 2016.

[5]. Brown, Jane K. Goethe's Faust: The German Tragedy. The United States of America: Cornell University Press, 1986.

[6]. Villanueva, Dario. Theories of literary realism. Albania: State University of New York Press, 1997.

Botirova Anaxon Dilmurod qizi (Urganch davlat universiteti Filologiya va san'at fakulteti oʻzbek tili ta'lim yoʻnalishi 2-bosqich talabasi; e-mail: anaxonbotirova362@gmail.com)

PIRIMQUL QODIROV QISSALARIDA DAVR VA QAHRAMON MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Pirimqul Qodirov qissalari, ulardagi ijtimoiy-siyosiy muhit va qahramon oʻrtasidagi bogʻliqliklar muhokamaga tortilgan. XX asrda hukm surgan mustabid shoʻro tuzumi, u olib kelgan qiyinchiliklarning badiiyatga koʻchgan shakli tahlil etilgan.*

Kalit soʻzlar: *davr, qahramon, qissa, badiiy, adib, tuzum, obraz.*

Ботирова Анахон Дилмурод кизы (студентка 2 курса отделения узбекского языка факультета филологии и искусств Ургенчского государственного университета; e-mail: anaxonbotirova362@gmail.com)

ПРОБЛЕМА ЭПОХИ И ГЕРОЯ В РАССКАЗАХ ПИРИМКУЛА КАДЫРОВА

Аннотация. *В данной статье рассматриваются связи рассказов Пиримкула Кадырова, общественно-политической среды в них и героя. Самодержавная система Шуры, правившая в XX веке, и трудности, которые она приносила, были проанализированы в художественной форме.*

Ключевые слова: *эпоха, герой, повесть, художественный, писатель, система, образ.*

Botirova Anakhon daughter of Dilmurod (2nd-level student of the Uzbek language department of the Faculty of Philology and Arts of Urganch State University; e-mail: anaxonbotirova362@gmail.com)

THE QUESTION OF ERA AND HERO IN PIRIMKUL KADIROV`S STORIES

Annotation. *This article discusses the connections between the stories of Pirimkul Kadyrov, the socio-political environment in them and the hero. The autocratic Shura system that ruled in the 20th century, and the difficulties it brought, were analyzed in the form of art.*

Key words: *era, hero, story, artistic, writer, system, image.*

Kirish (Intoduction). XX asr ijod olami, xususan, oʻzbek adabiyoti uchun tub burilishlar, yangilanishlar asri boʻldi. Isteʼdodlar qadrlanib, haqiqiy ijod uchun yoʻl ochib berildi. Soʻz sanʼati – badiiy adabiyotning barcha janrlarida olam-u odamni tadqiq etishdagi teranlik chuqurlashdi. Zero, "Ijod – bu oʻzini qiynash, mashaqqat chekish, huzur-halovatdan voz kechish, tom maʼnoda, fidoyilik demakdir. Chinakam yozuvchi odamlarning dard-u gʻami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, oʻzi uchun ilhomni, yangi mavzularni shu hayotdan, unda boʻlayotgan oʻzgarishlardan olishi kerakligini barchamiz yaxshi bilamiz" [1;31-b.]. Ana shundagina bu ijod namunasi kitobxon ongiga taʼsir qiladi, uning yuragiga hayajon soladi.

Soʻz sanʼatkori badiiy adabiyotning qaysi turida asar yaratmasin, nigohini umumbashariy muammolar yechimi, azaliy qadriyatlar talqiniga qaratadi. Xususan, qissa janrida voqelikni teran tahlil qilish, inson ruhiyatining tubsiz va qorongʻi puchmoqlariga nazar tashlash, hayot mohiyatini anglatishga eʼtibor kuchaydi. Qissa janri tabiatini kuzatar ekanmiz, unda obrazlar koʻp qirraliligi, konflikt oʻtkirligi, psixologik tahlil chuqurligi, badiiy-tasviriy vositalarining xilma-xilligi, mavzular rang-barangligi koʻzga tashlanadi [2;5–6-b.].

Adabiyotshunoslik ilmidan bizga maʼlumki, har qanday asar oʻz zamonasi, davr muammolariga munosabati, oʻsha kunlarning dolzarb savollariga bergan javobi sifatida maydonga keladi. Ijodkor xoh tarixiy, xoh zamonaviy asar yozsin, ularda oʻz davrining ijtimoiy-siyosiy, madaniy-maʼnaviy belgilari oʻz aksini topgan boʻladi [3;383-b.]. Jumladan, Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Pirimqul Qodirov yaratgan qissalarning tag zaminida ham ana shu xususiyatlar mujassam.